

QO'SHMA KORXONALARDA XUSUSIY KAPITAL HISOBINI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TASHKIL ETISHNING AMALIY JIHLATLARI

Asror Maxmanazar o'g'li YUSUPOV

dotsent v.b.

“INTERNATIONAL SCHOOL OF FINANCE TECHNOLOGY AND SCIENCE” instituti

Toshkent, O'zbekiston

asroryusupov14011992@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu maqolada qo'shma korxonalarda xususiy kapital hisobi moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS/ IFRS) talablari asosida tashkil etishning nazariy va amaliy jihatlari yoritilgan. Suningdek xususiy kapitalning tarkibiy qismlari – ustav kapitali, qo'shilgan kapital, rezerv kapitali, taqsimlanmagan foyda, rezerv kapitali va kapitalning boshqa komponentlarining mazmuni hamda ularning MHXS bo'yicha e'tirof etilishi hamda baholanishi tahlil qilingan. Ta'sischi bilan o'zaro hisob-kitoblar, dividend siyosati, kapitalga oid operatsiyalarni to'g'ri aks ettirishning moliyaviy hisobotning haqqoniyligi va shaffofligini ta'minlashdagi ahamiyati asoslab berilgan.

Tayanch so'zlar: xususiy kapital, aksiya, obligatsiya, dividend, emission daromad, rezerv kapital, taqsimlanmagan foyda, investor, aksiyador.

ПРАКТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ОРГАНИЗАЦИИ УЧЕТА ЧАСТНОГО КАПИТАЛА В СОВМЕСТНЫХ ПРЕДПРИЯТИЯХ НА ОСНОВЕ МЕЖДУНАРОДНЫХ СТАНДАРТОВ

Асрор Махманазар углы ЮСУПОВ

И.о. доцента

Институт “INTERNATIONAL SCHOOL OF FINANCE TECHNOLOGY AND SCIENCE”

Ташкент, Узбекистан

Аннотация

В данной статье освещены теоретические и практические аспекты организации учета собственного капитала в совместных предприятиях на основе требований международных стандартов финансовой отчетности (МСФО/IFRS). В статье анализируется содержание составных частей собственного капитала - уставного капитала, добавочного капитала, резервного капитала, нераспределенной прибыли и других компонентов капитала, а также их признание и оценка согласно МСФО. Кроме того, обосновано значение взаиморасчетов с учредителями, дивидендной политики и корректного отражения операций с капиталом для обеспечения достоверности и прозрачности финансовой отчетности.

Ключевые слова: собственный капитал, акция, облигация, дивиденд, эмиссионный доход, резервный капитал, нераспределенная прибыль, инвестор, акционер.

Qo'shma korxonalarda xususiy kapital hisobini moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS/ IFRS) asosida tashkil etish zamonaviy korporativ boshqaruvning asosiy talablaridan biridir. Xususiy kapital korxonaning moliyaviy barqarorligini aks ettiruvchi muhim ko'rsatkich bo'lib, uning to'g'ri hisobga olinishi va hisobotlari investorlar va boshqa manfaatdor tomonlar uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Xususiy kapitalning asosiy tarkibiy qismlariga aksiyadorlik kapitali (oddiy va imtiyozli aksiyalar), qo'shimcha to'langan kapital, taqsimlanmagan foyda, boshqa umumiy daromadlar elementlari kiradi. Xalqaro standartlar asosida ushbu elementlarni hisobga olish va hisobotlar tayyorlash maxsus qoidalar va talablar asosida amalga oshiriladi. Xususiy kapital hisobini tashkil etishning asosiy tamoyillari qatoriga to'liq va oshkora holda hisobotlar taqdim qilish, vaqtida baholash va xalqaro standartlarga muvofiqligi kiradi. Barcha kapital o'zgarishlari va operatsiyalar ular amalga oshirilgan vaqtda hisobga olinishi va tegishli tartibda hujjatlashtirilishi lozim.

Amaliy jihatdan xususiy kapital hisobini tashkil etish quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi: kapital tuzilmasini aniqlash va tasniflash, aksiyalarni chiqarish va ularning harakatini hisobga olish, dividendlar va boshqa taqsimotlarni hisoblash, kapital o'zgarishlari to'g'risida hisobot tayyorlash.

Tadqiqot natijalari qo'shma korxonalarda xususiy kapital hisobini yuritishda xalqaro standartlar, xususan IFRS talablari bilan milliy buxgalteriya standartlari o'rtasida sezilarli farqlar mavjudligini ko'rsatdi. Amaldagi milliy tartibotda kapitalning alohida komponentlari bo'yicha hisob va baholash tamoyillari nisbatan sodda va cheklangan bo'lsa, IFRS talablari kapital elementlarini aniq tasniflash, moliyaviy instrumentlarni to'g'ri e'tirof etish hamda kapitaldagi o'zgarishlarni shaffof tarzda aks ettirishni talab qiladi.

Tahlillarga ko'ra, qo'shma korxonalarda xususiy kapitalning asosiy qismlarida – ustav kapitali, qo'shimcha to'langan kapital, qayta baholash zaxiralari va taqsimlanmagan foyda bo'yicha hisob-kitoblarda xalqaro yondashuvning qo'llanishi korxonaning moliyaviy natijalarini yaxshiroq ifodalashga imkon beradi.

Ayniqsa IAS 1 va IAS 32 standartlari bo'yicha kapitalga tegishli operatsiyalarni moliyaviy majburiyatlardan to'g'ri ajratish investorlarga ishonchli axborot taqdim etishning asosiy shartlaridan biri ekani aniqlandi.

Empirik tahlillar shuni ko'rsatadiki, xo'jalik yurituvchi subektlar tomonidan kapitalni qayta baholash amaliyotining to'g'ri yuritilmasligi moliyaviy hisobot indikatorlarining buzilishiga, investitsion jozibadorlikning pasayishiga olib kelishi mumkin. Xalqaro standartlar asosida qayta baholash zaxiralarini shakllantirish, ularni taqsimlash tartibini aniq belgilash hamda foydani taqsimlash siyosatini oshkora yuritish aksiyadorlar manfaatlarini himoya qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tahlillar natijasida aniqlanishicha, qo'shma korxonalarda IFRS va IAS talablari asosida har bir aksiyaga daromadni hisoblash mexanizmlarini joriy etish bozor bahosining shakllanishida va investorlarga axborot yetkazishda samarali vosita bo'la oladi. Bu esa kapital bozorida aksiyalarning haqiqiy qiymatini baholash imkoniyatini oshiradi.

Xususiy kapital – xo'jalik yurituvchi subekt aktivlarining barcha majburiyatlar chegirilganidan qolgan qismi, ya'ni korxona egalarining ushbu korxona aktivlaridagi ulushidir.



1-rasm Xususiy kapital tuzilishi.

Umuman olganda, o'tkazilgan tadqiqotlar qo'shma korxonalarda xususiy kapital hisobini xalqaro standartlar asosida tashkil etish korxona faoliyati shaffofligini kuchaytirishi, moliyaviy hisobotlarning taqqoslanishini yaxshilashi va investitsion muhitning barqarorligini ta'minlashga xizmat qilishini ko'rsatdi. Shu bois kapital hisobi tizimini modernizatsiya qilish, milliy me'yoriy-huquqiy bazani IFRS talablariga moslashtirish hamda amaliyotda standartlardan samarali foydalanishni kengaytirish zarurligi aniqlangan.

1-jadval

Qo'shma korxonalarda xususiy kapital hisobi bo'yicha tahlili

Tahlil yo'nalishi	Milliy amaliyotdagi holat	IFRS talablari bo'yicha holat	Tahlil natijasi
Kapitalning tasnifi	Kapital tarkibi umumlashtirilgan, ayrim komponentlar aniq ajratilmaydi	Ustav kapitali, qo'shimcha kapital, qayta baholash zaxiralari, taqsimlanmagan foyda aniq ajratiladi	Xalqaro tasnif kapitalning to'liq va shaffof ko'rinishini ta'minlaydi
Moliyaviy instrumentlarning e'tirofi	Aksiyalar moliyaviy instrument sifatida to'liq tasniflanmaydi	IAS 32 asosida aksiyalar, preferensial aksiyalar, moliyaviy majburiyatlar aniq tasniflanadi	To'g'ri tasnif investorlarga to'liq ma'lumot beradi
Kapitaldagi o'zgarishlarni aks ettirish	O'zgarishlar ko'pincha umumiy jamg'armalarda aks ettiriladi	IAS 1 asosida har bir komponent bo'yicha alohida aks ettiriladi	Aniqlik moliyaviy hisobot shaffofligini oshiradi
Qayta baholash zaxiralari	Qayta baholash amaliyoti kam qo'llanadi yoki chalkash yuritiladi	IAS 16 va IAS 38 bo'yicha aktivlarni qayta baholash aniq tartibga ega	To'g'ri qayta baholash korxona qiymatini realizmdan kelib chiqib aks ettiradi
Dividend siyosati	Dividendlar ko'pincha faqat hisoblangan foyda doirasida ko'rib chiqiladi	IFRS talablari bo'yicha dividendlar faqat taqsimlanadigan foydadan ajratiladi	Xalqaro tartib korxonaning real moliyaviy holatini aks ettiradi
Har bir aksiyaga daromad (EPS)	Amaliyotda deyarli qo'llanmaydi	IAS 33 bo'yicha majburiy ko'rsatkich	EPS investorlarga real baholash imkoniyatini yaratadi
Moliyaviy hisobotning taqqoslanishi	Milliy standartlar asosida cheklangan	IAS asosida xalqaro bozorlarda taqqoslanadi	Investitsion jozibadorlik oshadi
Shaffoflik darajasi	O'rtacha, ayrim ma'lumotlar umumiy ko'rinishda beriladi	Har bir kapital komponenti bo'yicha batafsil ma'lumot	Shaffoflik va ishonchlilik sezilarli oshadi

		taqdim etiladi	
--	--	----------------	--

O‘zbekiston fond bozori oxirgi yillarda bosqichma-bosqich rivojlanayotgan bo‘lsa-da, aksiyadorlik jamiyatlari tomonidan aksiyalarni ochiq bozorga chiqarish darajasi pastligicha qolmoqda. Bu esa emission daromadi shakllanish imkoniyatlarini cheklaydi. Ko‘plab korxonalar aksiyalarni asosan nominal qiymatda joylashtirmoqda. Ochiq joylashtirish (IPO, SPO) amaliyoti yetarli darajada rivojlanmagani sababli aksiyalar bozor narxi shakllanmayapti. Investorlar talabi past bo‘lgani uchun aksiyalar ko‘pincha nominaldan yuqori narxda sotilmaydi.


Muammolar: Emission daromad shakllanmasligi korxonalarning qo‘shimcha moliyaviy resurslar jalb etish imkoniyatini cheklaydi. Kapital bozorida shaffoflik pastligi investor ishonchiga to‘siq bo‘ladi. O‘zbekiston sharoitida emission daromadini oshirish uchun aksiyadorlik jamiyatlari fond bozorida faolroq bo‘lishi, korporativ boshqaruvni kuchaytirishi va IPOlarni joriy etishi zarur.

O‘zbekiston normativ-huquqiy tizimida qo‘shma korxonalar uchun rezerv kapitali majburiy hisoblanadi (odatda, ustav kapitalining kamida 15% miqdorida). Bu ko‘plab davlatlarda uchramaydigan konservativ yondashuvdir. Korxonalar rezerv kapitalni asosan qonuniy talabni bajarish uchun shakllantiradi. Ixtiyoriy zaxiralar, qayta baholash zaxiralari kam shakllantiriladi yoki noto‘g‘ri yuritiladi. Aktivlarni qayta baholash bo‘yicha IFRS talablari to‘liq qo‘llanilmaydi.

Rezerv kapital faqat “hisobda bor”, amalda ko‘pincha likvid mablag‘ bilan ta’minlanmagan. Qayta baholash rezervlarining aniq yuritilmasligi moliyaviy hisobotlarning sifatini pasaytiradi. Zararlarni qoplash mexanizmi korxonalar tomonidan to‘liq tushunilmagan. Rezerv kapitalini IFRS standartlariga mos shakllantirish korxonalarga moliyaviy barqarorlikni ta’minlashda yordam beradi. Qayta baholash zaxiralari bo‘yicha amaliyot kuchaytirilishi lozim.

Taqsimlanmagan foyda O‘zbekiston qo‘shma korxonalarida moliyaviy resurslarning eng muhim ichki manbalaridan biri hisoblanadi. Ko‘p korxonalar dividendlarni minimal darajada to‘lab, asosiy mablag‘larni modernizatsiya qilish

uchun foydani korxonada qoldiradi. Yirik davlat ulushiga ega korporatsiyalarda foyda ko‘p hollarda byudjetga majburiy ajratmalar hisobiga kamayadi. Xususiy sektorda taqsimlanmagan foyda investitsion faoliyatning asosiy manbai bo‘lib xizmat qiladi.



2-rasm Moliyaviy holat to‘g‘risidagi hisobot shakli bo‘yicha xususi kapital tarkibi.

Dividend siyosati barqaror emas. Foyda taqsimlanishi bo‘yicha oshkoralik past. IFRS talablari to‘liq qo‘llanmagani sababli kapitaldagi o‘zgarishlar hisobotlari sifatli tuzilmaydi. O‘zbekiston sharoitida taqsimlanmagan foyda korxona moliyaviy barqarorligini ta‘minlashda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Uni samarali boshqarish korxonaning investitsion jozibadorligini kuchaytiradi.

2-jadval

Qo‘shma korxonalarda xususi kapitalni umumiy taqqoslovchi tahlil jadvali

Ko‘rsatkichlar	Amaldagi holat	Muammolar	Talab etiladigan o‘zgarishlar
Emission daromadi	Aksiyalar ko‘pincha nominal bahoda joylashtiriladi	Bozor narxi shakllanmagan, IPOlar kam	Fond bozorini rivojlantirish, aksiyalarni bozor narxida sotish

Rezerv kapitali	Majburiy rezerv kapital mavjud	Qayta baholash rezervlari noto‘g‘ri yuritiladi	IFRS bo‘yicha alohida zaxiralarni shakllantirish
Taqsimlanmagan foyda	Korxonalarda asosiy investitsion manba	Dividend siyosati barqaror emas, oshkoralik yetishmaydi	Kapitaldagi o‘zgarishlar hisobotini IFRS asosida tayyorlash

O‘zbekiston sharoitida emission daromadi, rezerv kapitali va taqsimlanmagan foydaning samarali boshqaruvi uchun quyidagi yondashuvlar zarur:

Korporativ boshqaruvni kuchaytirish – investor ishonchini oshirish uchun.

IFRS ni to‘liq joriy etish – kapital hisobi shaffofligini ta’minlash uchun.

Fond bozorini rivojlantirish – emission daromadini shakllantirish uchun.

Taqsimlanmagan foydani strategik boshqarish – korxonaning uzoq muddatli rivoji uchun.

Qo‘shma korxonalarda xususiy kapital hisobini Xalqaro Moliyaviy Hisobot Standartlari asosida tashkil etish zamonaviy korporativ moliyaviy boshqaruvning ajralmas tarkibiy qismidir. Xalqaro standartlarga muvofiq tuzilgan xususiy kapital hisobi kompaniyaning moliyaviy sog‘ligi va barqarorligini aniq aks ettirish, investorlar ishonchini oshirish va global bozorda raqobatbardoshlikni ta’minlash imkoniyatini beradi.

Xalqaro standartlarni joriy etish bilan bog‘liq qiyinchiliklar (mahalliy qonunchilik bilan uyg‘unlik, kadrlar tayyorlash, texnik imkoniyatlar) bo‘lsada, ularni bartaraf etish kompaniyaning uzoq muddatli rivojlanishi va xalqaro miqyosda muvaffaqiyati uchun muhim investitsiyadir.

Xulosa qilib aytganda, xususiy kapital hisobini Xalqaro standartlar asosida tashkil etish nafaqat qonuniy talab, balki kompaniyaning barqaror rivojlanishi va global moliyaviy hamjamiyatda ishonchli hamkor sifatida e’tirof etilishi uchun strategik zaruratdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Бухгалтерия ҳисоби тўғрисида: Ўзбекистон Республикасининг 2016 йил 13 апрель ЎРҚ-404-сон Қонуни. Янги таҳрири. www.lex.uz.
2. Акциядорлик жамиятлари ва акциядорлар ҳуқуқларини ҳимоялаш тўғрисида: Ўзбекистон Республикасининг 2014 йил 6 май ЎРҚ-370-сон. Қонуни. Янги таҳрири. www.lex.uz.
3. Масъулияти чекланган жамиятлар тўғрисида: Ўзбекистон Республикасининг Қонуни. <https://www.lex.uz/acts/22525>
4. Молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартларига ўтишнинг қўшимча чора-тадбирлари тўғрисида: Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 24 феврал ПҚ-4611-сон Қарори <https://lex.uz/docs/4746047>
5. Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan va 2024-yil 8-oktyabrdagi 181-sonli buyrug‘i 1-ilovasiga asosan “Moliyaviy hisobotlarni taqdim etish muddatlari hamda ularning tarkibi va mazmuni to‘g‘risida” gi Nizom.
6. Норбеков Д.Э., Тўраев А.Н., Рахмонов Ш.Ш. Молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартлари: ўқув қўлланма. – Тошкент: Иқтисод-молия, 2019. – 332 б.
7. Tashnazarov S.N. Moliyaviy hisobotning nazariy va metodologik asoslarini takomillashtirish: monografiya. – Publisher SIA OmniScriptum Publishing. Globe Edit Publishing house. 2018. 280 p. ISBN-13:978-613-8-24050-1. https://www.morebooks.shop/bookprice_offer.
8. Ташназаров С.Н. Молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартлари: Олий ўқув юртлари магистратура мутахассисликлари учун дарслик. – Тошкент: Иқтисод-молия, 2020. – 555 б.
9. Ташназаров С.Н. Иқтисодиётни модернизациялаш шароитида молиявий ҳисобот: муаммо ва ечимлар: Монография. – Тошкент: Наврўз, 2016. – 296 б.
10. Eshonqulov A.A. Moliyaviy hisobot (Financial reporting) o‘quv qollanma. – Toshkent: TIB NASHR, 2025. – 485 b.

11. <https://hbr.org/2021/04/research-joint-ventures-that-keep-evolving-perform-better>
12. <https://www.ifac.org/publications-resources/accountability-now-brochure>.
13. <http://www.ifrs.com>